

20-May, 2025-yil

**BARMOQ IZLARI ORQALI SHAXSNING INDIVIDUAL
XUSUSIYATLARINI ANIQLASH**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisi

Ahmadov Shohrux Shuxratovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Kursanti

Jalgasov Amir Amanboy o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali papillon-9 avtomatlashtirilgan daktiloskopik axborot tizimi va uning shaxslarni identifikasiya qilishdagi imkoniyatlari hamda daktiloskopiya ekspertizasining tadqiqot obyektlari haqida bilimlarga ega bo'lasiz.

Аннотация: Из данной статьи вы узнаете об автоматизированной дактилоскопической информационной системе «Папилон-9» и ее возможностях по идентификации личности, а также об объектах исследования дактилоскопического обследования.

Annotation: Through this article, you will gain knowledge about the Papillon-9 automated dactyloscopic information system and its capabilities in identifying individuals, as well as the research objects of dactyloscopic examination.

Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, insoniyatga qo'l-barmoq izlari qadimdan ma'lum bo'lgan. Jinoyat hodisasi bilan bog'liqlikda bo'lgan moddiy ob'yektlarning turlicha xossalari, holati, alomatlarining o'zgarib turishi va ushbu ko'rsatilgan o'zgarishlarni tashuvchilarini bo'lgan moddiy ob'yektlarning o'zi, huquqshunoslikka oid maxsus adabiyotlarda jinoyatlarning moddiy izlari deb ataladi.

Ushbu moddiy izlarni jinoyatlarning tergov qilish va ochish jarayonida samarali qo'llashning muhim omillaridan biri, ushbu moddiy izlarni o'z vaqtida aniqlash, olish, qayd etish va tadqiqot qilish jarayonlariga bog'liq. Daliliy ma'lumotlarni olishning o'z vaqtidaligi va operativliligi, jinoyatlarning tergov qilish va ochishning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.

Shuning uchun, jinoyatlarning tergov qilish faoliyatida daliliy ashyolarni, hodisa sodir bo'lgan joyni o'zida dastlabki kriminalistik tadqiqotlarini o'tkazish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Moddiy izlarda mayjud bo'lgan, sodir etilgan jinoiy qilmish va jinoyatchi shaxsning shaxsi haqidagi, “oddiy ko'z” bilan ko'rib bo'lmaydigan ma'lumotlarni aniqlash va qayd etishga mo'ljallangan ushbu tadqiqotlar, jinoyatlarning “issiq izi”dan ochishga kalit vazifasini o'taydi va jinoyatchini qidirib topishga imkon beradi.

Jinoyatning moddiy izlarni ekspertiza tadqiqotlaridan oldingi chuqur tadqiqotlarini maxsus adabiyotlarda, ularni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dastlabki tadqiqotlar deb ataladi. Subyektlarning ko'zdan kechirishning tadqiqot faoliyatida dastlabki tadqiqotlar juda ko'p hollarda majburiy hisoblanadi va muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu kabi tadqiqotlar har doim operativ xarakterga ega, hamda darhol o'tkazilishi lozim.

20-May, 2025-yil

Dastlabki tadqiqotlar ekspertiza tadqiqotlaridan o’ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu kabi tadqiqotlar o’tkazishning sub’yektlari. “Moddiy qayd etilgan ob’yektlarning (buyumlar, hujjatlar va hokazolarning) dastlabki tadqiqotlari tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudlar tomonidan mustaqil ravishda ham, mutaxassis ishtirokida ham o’tkazilishi mumkin”. Yuqorida sanab o’tilgan shaxslardan, mutaxassisni istisno qilgan holda, dastlabki tadqiqotlarni eng ko’p tergovchi o’tkazishi mumkin. “Masalan, kriminalistik texnikani, jumladan, papillyar naqshlarni tasniflashni bilishi, tergovchiga, tergov harakatlarini tashkil etish va olib borish bosqichidayoq, naqshning turiga ko’ra, hodisaga aloqador bo’lgan shaxslarni operativ tarzda tekshirish va qidirilayotgan shaxslar doirasini ancha toraytirish, ekspertiza tadqiqotlari uchun daktiloskopik kartalarni maqsadga muvofiq holda tanlash, umumiy alomatlarga ko’ra keyingi tadqiqotlarning maqsadga muvofiqligini hal etish imkonini beradi”.

Ikkinchidan, dastlabki tadqiqotlarni o’tkazish metodikasining o’ziga xos xususiyati, ularni ekspress xarakteri (bu tadqiqotlarni o’tkazish vaqtin chegaralanganligi va operativ talablar qo’yilishi) va quyidagi usul va metodlarning qo’llanishidadir: a) dala kriminalistikasining texnik vositalari - maxsus moslashtirilgan yoki maxsus kompleks asbob-anjomlar, qurilmalar va materiallar asosida ishlatilishi mumkin, b) tadqiqot ob’yektlarining turi va xossalari o’zgartirmaydi, ularni buzilishiga, yo’olib ketishiga va ulardan so’ng yana ekspertiza tadqiqotlari o’tkazish imkoniyatini yo’qotmaydi (ya’ni, destruktiv emas). Yuqorida keltirilgan sabablarga ko’ra, dastlabki tadqiqotlar hajm jihatdan kichikdir, ya’ni juda zarur bo’lgan yoki tekshirilishini ortga surib bo’lmaydigan narsalarga tekshiriladi. Albatta bu tadqiqotlar ekspertiza tadqiqotlari kabi har tomonlama yoki chuqur bo’lmasligi mumkin, chunki dala sharoitlarida (masalan, hodisa sodir bo’lgan joyda o’tkazilishi) sud ekspertizalarining ayrim turlarini o’tkazish uchun zarur statsionar laboratoriya jihozlarini ishlatib bo’lmaydi.

Uchinchidan, tergov harakatlari jarayonida o’tkaziladigan dastlabki tadqiqotlar natijasida olinadigan kriminalistik ma’lumotlar mustaqil daliliy ahamiyatga ega emas. Bundan farqli o’laroq ekspertiza xulosalari, agar ular tergovchi tomonidan ijobiy baholansa, mustaqil daliliy ahamiyatga ega bo’ladi, ya’ni isbotlarning bir turi hisoblanadi. Shuning uchun, ayrim mualliflarning dastlabki tadqiqotlarning natijalari umuman daliliy ahamiyatga ega emas va bu kabi barcha kriminalistik ma’lumotlar protsessual jihatdan mustaxkamlanmagan degan fikrlari unchalik to’g’ri emas. Albatta, maxsus adabiyotlarda muayyan sharoitlarda dastlabki tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlar ham daliliy ahamiyatga ega bo’ladi degan fikrlar ham yo’q emas. Bu holda, ushbu ma’lumotlar tergov harakatlari jarayonida (masalan, tergov ko’zdan kechirishida) olinib bayonnomada aks ettirilgan holatlar ustida fikr yuritilmoqda. Bizning fikrimizcha, bunday nuqtai-nazar ancha to’g’riroqdir va dastlabki tergov harakatlarining amaliyatiga asoslangandir. Faqat bu holda qanday xarakterdagi ma’lumotlar, nima uchun va qay darajada daliliy ahamiyatga ega bo’lishini yanada aniqlashtirib olish lozim bo’ladi.

20-May, 2025-yil

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 81-moddasiga binoan, qonun tomonidan aniq belgilangan ma’lumotlar manbalaridan (bular qatoriga - daliliy ashyolar va tergov harakatlarining bayonnomalari ham kiradi) aniqlanadigan faktik ma’lumotlar dalillar hisoblanadi. Hodisa sodir bo’lgan joyda dastlabki kriminalistik tadqiqotlarning ob’yektlari bo’lib quyidagi daliliy ashyolar hisoblanadi: aks-izlar va ayrim buyum izlari, jinoyat qurollari, yaxlitning bo’laklari, yopish moslamalari va hokazolar. Bu obyektlarning tadqiqotlari natijasida quyidagi ikki turdag'i kriminalistik ma’lumotlar olinadi:

- a) ta’kidlovchi (birorta muayyan holatni tasdiqlovchi) ma’lumotlar;
- b) yo’naltiruvchi (ehtimolli xarakterdagi) ma’lumotlar.

Ta’kidlovchi ma’lumotlar, ma’lumki, tergov harakatlarining bayonnomalarida aks ettiriladi. Masalan, hodisa sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirish bayonnomasida aniqlangan barmoq izlarining mavjudligi, miqdori, turi va topografiyasi, oddiy ko’rish bilan aniqlanadigan sifatiy xarakteristikalari (shu jumladan o’ziga xos xususiyatlari) ifoda etiladi. Bu kabi protsessual jihatdan mustaxkamlangan ta’kidlovchi kriminalistik ma’lumotlar ko’zdan kechirishda aniqlangan va bayonnomada aks ettirilgan barcha faktlarning bir hismi hisoblanadi, hamda faqat ana shu holatda ular daliliy ahamiyatga ega bo’ladi. Yo’naltiruvchi ma’lumotlar (masalan, barmoq izlarining identifikasiya uchun yaroqliligi, izlarning kelib chiqishi, bu izlarni holdirgan shaxslarning xususiyatlari va hokazolar) ko’zdan kechirish bayonnomasiga kiritilmaydi va shuning uchun daliliy ahamiyatga ega bo’lmaydi. Odatda bu kabi ma’lumotlar dastlabki tadqiqotlar bo’yicha ma’lumotnomalarda ifodalanadi. Kriminalistika fanida hozircha dastlabki tadqiqotlarning yagona tushunchasi ishlab chiqilgani yo’q. Turli mualliflar ularning tabiatini turlicha talqin etadilar. Kriminalistlardan A.G. Mavrin quyidagi fikrni bildiradi: “Jinoyat sodir etish mexanizmi, shart-sharoitlari, mohiyati, jinoyatchining shaxsi va jinoyatni ochish uchun boshqa ma’lumotlarni hodisa sodir bo’lgan joyda aniqlangan moddiy manbalarini tadqiq etish, hamda baholash orhalı, dastlabki tergov va surishtiruv organlarining hodisa sodir bo’lgan joyni ko’zdan kechirish sharoitlarida maxsus bilimlar va ilmiy-texnik vositalar yordamida (kerak bo’lsa, mutaxassislarining yordamida) amalga oshiradigan bilim faoliyatining shakllaridan biri - dastlabki tadqiqotlardan iborat”.

Kriminalistlardan A.M. Gerasimov, V.E Kapitonov va boshqalar ham shunga o’xshash fikrlar bildirganlar.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning umumiyligi kamchiligi fikrimizcha, hodisa joyini ko’zdan kechirish sharoitlaridagi dastlabki tadqiqotlar ustida gap borganidadir, chunki dastlabki tadqiqotlar boshqa tergov harakatlari jarayonida ham o’tkazilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, dastlabki tadqiqotlar tabiatini to’g’riroq aniqlash uchun, kriminalistkada hali-hanuzgacha bahslarga sabab bo’lib kelayotgan quyidagi savolga javob berish katta ahamiyat kasb etadi: Bu tadqiqotlar protsessual yoki noprotsessual xarakterga egami? Masalan, yuqorida aytib o’tilgan mualliflar bu kabi tadqiqotlarning noprotsesual xarakterga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Albatta, P.P.Ishenko dastavval bu tadqiqotlarni noprotsessual xarakterini ta’kidlaydi, ammo keyinroq esa agar ushbu tadqiqotlarni o’tkazish subyekti ekspert bo’lsa, ular protsessual xarakterga ega bo’ladi degan fikr bildiradi.

20-May, 2025-yil

Yuqorida dastlabki tadqiqotlar jarayonida olingan ma'lumotlar tergov harakatlarining bayonnomasida qayd etilgan bo'lsa daliliy ahamiyatga ega bo'ladi deb ta'kidlandi. Shu bilan bir vaqtda, operativ-qidiruv tadbirlari jarayonida o'tkaziladigan dastlabki tadqiqotlar hech qachon protsessual xarakterga ega bo'lishi mumkin emas. Va umuman, bu kabi tadqiqotlarning protsessual yoki noprotsessual xarakteri haqida fikr yuritish zarur emas, chunki dastlabki tadqiqotlar maxsus bilimlarni qo'llashning mustaqil shakli emas, masalan, ekspertiza tadqiqotlari maxsus bilimlarni qo'llashning mustaqil shakli hisoblanadi. Kriminalistika fanida maxsus bilimlarni qo'llashning barcha shakllari allaqachon va juda aniq ko'rsatib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. Toshkent-2023.
2. Daktiloskopiya darslik.
3. Mirzayev T.R. va boshqalar. Kriminalistik texnikasi\O'quv qo'llanma. – Toshkent.1999–b.
4. Kornoukov V.KE. Daktiloskopicheskaya ekspertiza. – Krasnogorsk.1990.- 412 b.
5. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)
6. [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)